



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**



**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To‘plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a‘zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G‘.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G‘.O‘.

Mas’ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

FARG‘ONA VODIYSIDA CHO‘LLASHISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI

Aminjanova Muslima Ibrohimjon qizi

Namangan davlat universiteti

e-mail: aminjanova2002@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysida sodir bo‘layotgan cho‘llanish jarayonlari va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida ma‘lumotlar hamda muallifning fikr-mulohazalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: vodiyy, cho‘llanish, geokologik muammo, voha, eroziya, cho‘l, degradatsiya, antropogen, arid hudud, sho‘rlanish.

DESERTIFICATION PROBLEMS IN THE FERGANA VALLEY AND MEASURES TO ELEMIMATE THEM

Aminjanova Muslima

Annotation: This article provides information on the desertification process in the Fergana valley and the measures taken to prevent them, as well as the author's views.

Keywords: valley, desertification, geocological problem, oasis, erosion, desert, degradation, anthropogenic, arid zone, salinity.

Ko‘p tadqiqotlar uzoq sayyoramizdagi unumdor yerlar miqdori har yili kamayib ketyapganini ko‘rsatdi. Dastlabki hisob-kitobarga ko‘ra olimlar, o‘tgan asrda qayta ishlash uchun mos yerlarning taxminan chorak qismi ishlamaydigan yerlar ekanligini aniqlashdi. Har daqiqada O‘zbekistonning 9 kvadrat metr hududi cho‘llashib boryapti. Ekologik va geokologik muammolar kun sayin o‘sib bormoqda. Har soniyada dunyo bo‘ylab 23 gektar yerlar cho‘llanib boryapti. Bu holat davom etaversa, 2050-yilga borib yer yuzining 95% i cho‘llanishi va bu 3 milliarddan ziyod odamni oziq-ovqat tanqisligida qoldirishi mumkinligi taxmin qilinmoqda [1]. O‘tgan asrdan beri geokologik muammolar qatoriga cho‘llanish ham qo‘shildi. “Cho‘llanish” tushunchasining bir necha sinonimi bor. Xususan, cho‘llanish bundan tashqari Saxel sindromi va cho‘l ilg‘or shakllanishi deyiladi. Cho‘llanish deb atrof-muhitdagi ekotizimlarning unumdor yerlar hosilining kamayishi, degredatsiyalanishi iqlimning quruqlashishi, cho‘llik xususiyatlari xos bo‘lgan hududlar maydonining kengayib borish jarayoniga aytiladi. Cho‘llanish – yerning ekin ekilmaydigan yaroqsiz holga kelish jarayonidir. Cho‘llangan o‘lkalarda ekologik tizimlar buziladi, organik hayotning barcha shakllari yomonlashadi. Qurg‘oqchil iqlimli o‘lkalar ekologik

tizimlar buziladi ulardagi organik hayotning barcha shakllari yomonlashadi. Butun dunyoni tabiiy iqtisodiy inqirozga olib keladi.

Shuningdek, dunyo aholisining o'sib borishi cho'llanishning asosiy sabablaridan biri. Chunki, odamlar ko'paygani oziq-ovqat va moddiy boyliklarga talabani ham oshiradi. Bu esa yerdan ko'proq hosil olish kerakligini anglatadi. Natijada dehqonchilik maydonlari ayovsiz ishlatiladi va yaroqsiz holga keladi. Cho'llanish asta-sekin rivojlanuvchi jarayon bo'lib hisoblanadi va albatta shamol eroziyasi bir xil bo'lmagan relyef shakllariga, ko'chib yuruvchi qumlar harakatiga bog'liq holatda rivoj topadi.

O'zbekistonda yaqin yillar ichida cho'llanish jadallashgan. O'zbekistonda yerning eroziyasi Farg'ona vodiysi, bundan tashqari Buxoro viloyatining cho'llarida, Qarshi va boshqa tumanlarda uchraydi. Qarnobcho'l, Mirzacho'l, Sherobod, Dalvarzin, Qoraqalpoq cho'llari chegaralari kengayishda davom etyapti. Ular qatoriga o'tgan yillar ichida eng yosh bo'lgan cho'l – Orolqum ham qo'shildi. Orolqum hozir 60 yoshga to'ldi va uni dunyodagi eng yosh cho'l desak mubolag'a bo'lmaydi. Orolqum cho'li Turkmanistondagi Qoraqum cho'li bilan O'zbekistondagi Qizilqumni birlashtirib yubordi [4].

Changli shamollar Farg'ona vodiysining Qo'qon va boshqa shaharlarida kuchli, chunki bu joylarda qora va qizil qumlar nihoyatda ko'p. Farg'ona vodiysining Dalvarzin, Yozyovon, Qoraqalpoq, Markaziy Farg'ona cho'llari chegaralari kengayishda davom etyapti. Ayniqsa, Namangan viloyatining Mingbuloq tumanida cho'llanish jarayoni kuchaymoqda. Bunga sabab qilib suvdan nooqilona foydalanish qishloq xo'jaligi yerlaridan betartib foydalanishni ko'rsatish mumkin.

Farg'ona vodiysida ham cho'llanish muammosi mavjud bo'lib, Markaziy Farg'ona cho'llarida vohalar asosan cho'lga tutash tekisliklarda tarkib topgan. Markaziy Farg'ona cho'llari tabiatiga inson omili ta'sirida madaniy landshaftlarning vujudga kelishi bilan birga ekologik muammolar ham vujudga kelmoqda. Inson omili natijasida tabiatning bir yoki ikki komponentini o'zgartirish barcha komponentlarga ham ta'sir etib, uning muvozanatini buzilishiga sabab bo'ladi. Natijada cho'llarda ekologik muammolar vujudga kelishi mumkin va bu o'z navbatida tuproq eroziyasining kuchayishiga, ichimlik suvining kamayib, o'simlik va hayvonlarning yo'qolib borishiga olib kelmoqda. Markaziy Farg'ona cho'llari vodiydagi keng ko'lamga ega cho'l hisoblanadi. A. Abdulqosimovning 2005-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, cho'l komplekslari ichida eol qumliklari 521 kv.km yoki vodiyning tekislik qismining 1,6% ini egallagan bo'lsa, sho'rxok cho'llar 1254 kv.km yoki 4,4% maydonni tashkil etadi. Lekin bu cho'l landshaftlariga kuchli inson ta'siri natijasida bir qator noxush ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda [2]. Bularga sho'rlashgan yerlarning kengayib borishi, suvlarning mineral tarkibining o'zgarib borishi, kimyoviy va mineral o'g'itlarni me'yoridan ortiqcha qo'llanishi oqibatida tuproq, suv, o'simlik,

hayvonot dunyosining zararlanishi hamda qishloq xo‘jalik ekinlari, aholi orasida turli kasalliklarning kelib chiqishi, sanoat korxonalarining noto‘g‘ri joylashtirilishi oqibatida ularning zararli chiqindilari tomonidan atrof-muhitning ifloslanishi kabilar kiradi. Bu muammolarni bartaraf qilish uchun eng istiqbolli yo‘llardan biri haydaladigan yerlarda daraxt ekish hisoblanadi. Bu shamol eroziyasi rivojlanishini kamaytiradi va tuproq namligining bug‘lanishini kamaytiradi. Bundan tashqari, Markaziy Farg‘ona cho‘llarini kompleks o‘rganish va shu asosda ulardan samarali foydalanish, vaziyatni yaxshilash uchun mahalliy chora-tadbirlar ham mavjud. Juda samarali yem-xashak o‘simliklari atrofida loydan yoki toshdan devorlar qurish ham mahalliy chora-tadbirlardan hisoblanadi. Bu holat 30-40 sm balandlikdagi yog‘ingarchilikni kechiktirish uchun yetarli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining 70% dan ko‘proq hududi cho‘l va chala cho‘ldan iboratligini inobatga olsak, sug‘oriladigan yerlarda sho‘rlanish, botqoqlashish, shamol va suv eroziyasi yaylovlarda yerosti suvlari sathining ko‘tarilishi ayniqsa, Farg‘ona vodiysining markazidagi adirlarda cho‘llanishning agi adirlarda cho‘llanishning oqibatlarini yaqqol ko‘rishimiz mumkin [3]. Natijada qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning mahsuldorligi borgan sari pasayib, oziq-ovqat yem-xashak va sanoat xomashyolarini yetarli miqdorda yetishtirib berish sekinlashmoqda va yetishtirilgan mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlari ham pasayib bormoqda. Vujudga kelgan ekologik vaziyatning yomonlashishi natijasida cho‘llashgan yerlardan aholining shaharga ko‘chishi ko‘paymoqda.

Barcha hududlarda bolgani kabi Fargona vodiysida ham cho‘llashishni keltirib chiqaradigan asosiy omillardan biri bu – sho‘rlanishdir. Agar sho‘rlangan yerlarning holatini yaxshilashga doir meliorativ tadbirlar olib borilmasa bu yerlarda cho‘llanish muammosi kelib chiqadi. Bugungi kunda respublikamiz sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari sho‘rlanganlik darajasini aniqlash, ularning unumdorligini saqlash, qayta tiklash, oshirish va boshqarish maqsadida tuproqlarning agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalarini, meliorativ holatini yaxshilash hamda tuproqlar degradatsiyasiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda [2].

Cho‘llashish butun dunyoda ro‘y berayotgan jarayon bo‘lib, quruqlik umumiy maydonining 40% qismida cho‘llashish belgilari kuzatilmoqda. Yer yuzasining tegishli qismida 2 milliard kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi [4]. 1995-yildan boshlab 17-iyunda Butunjahon cho‘llashish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish kuni nishonlanadi 2010–2020-yillar oralig‘i BMT tomonidan “Cho‘llar va cho‘llashishga qarshi kurashishga bag‘ishlangan “o‘n yillik” deb e‘lon qilingan. Shu kabi tadbirlarning o‘zi ham cho‘llashishning global muammo ekanligini ko‘rsatmoqda. Cho‘llanishning oldini olish maqsadida muammoga davlat miqyosida qaralishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аббасов С.Б., Ғўдалов М. Арид ландшафтларнинг чўлланиш муаммолари ва уларнинг геоэкологик оқибатлари (Қизилқум чўли мисолида). //Экология хабарномаси. № 6 (57). - Тошкент, 2005. –Б. 40 – 42.
2. Боймирзаев К.М. Фарғона водийси воҳа ландшафтларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш. “Фан” нашриёти, Тошкент, 2007. – 130 – бет.
3. Рафиқов А.А. Геоэкологик муаммолар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 112 с.
4. Рафиқов В.А. Опустынивание. – Ташкент: Институт Сейсмологии АН РУз. 2016. – 238 с.